QORAQALPOQ TABIIY FANLAR ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.05/2025.27.12.B.14.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH

ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR NOMIDAGI ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI

G‘APPOROV FAXRIDDIN SHARABIDINOVICH

ANTROPOGEN OMILLAR TA’SIRI OSTIDA QOLGAN HUDUDLARNING ZAMONAVIY HOLATI VA O‘SIMLIKLAR XILMA-XILLIGI (ANDIJON VILOYATI MISOLIDA)

03.00.10 – Ekologiya

BIOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PHD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Nukus – 2026

UO‘K 504.3:581.5(575.122)

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi
Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
Contents of dissertation abstract of doctor of Philosophy (PhD)

G‘apporov Fahriddin Sharabidinovich
Antropogen omillar ta’siri ostida qolgan hududlarning zamonaviy holati va o‘simliklar xilma-xilligi (Andijon viloyati misolida)..... **3**

Гаппаров Фахриддин Шаробидинович
Современное состояние территорий, находящихся под воздействием антропогенных факторов и разнообразие растительного мира (на примере Андижанской области)..... **21**

Gapporov Fakhriddin Sharabidinovich
The Current State of Areas Affected by Anthropogenic Factors and Plant Diversity (A Case Study of Andijan Region)..... **41**

E’lon qilingan nashrlar ro‘yxati
Список опубликованных работ
List of published works..... **45**

QORAQALPOQ TABIIY FANLAR ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.05/2025.27.12.B.14.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH

ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR NOMIDAGI ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI

G‘APPOROV FAXRIDDIN SHARABIDINOVICH

ANTROPOGEN OMILLAR TA’SIRI OSTIDA QOLGAN HUDUDLARNING ZAMONAVIY HOLATI VA O‘SIMLIKLAR XILMA-XILLIGI (ANDIJON VILOYATI MISOLIDA)

03.00.10 – Ekologiya

BIOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PHD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Nukus – 2026

Biologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston

Biologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.4.PhD/B1648 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Andijon davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus va ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.aknuk.uz) va «ZiyoNet» Axborot ta’lim tarmog‘iga (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Naraliyeva Nasibaxon Mamanovna** biologiya fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	**Ajiev Alisher Baxtibayevich** biologiya fanlari doktori, professor
	Turginov Orzimat Turdimatovich biologiya fanlari doktori, dotsent
Yetakchi tashkilot:	**Farg‘ona davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Qoraqalpoq tabiiy fanlar ilmiy tadqiqot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.05/2025.27.12.B.14.02 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil «04» 12 soat 10⁰⁰ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 230100, Nukus shahri, Berdaq shoh ko‘chasi 41-uy (institut kichik majlislar zali). Tel: (+99861) 222-17-44, (+99861) 222-96-72, faks: (+99861) 222-17-44, e-mail: aknauk@mail.uz

Dissertatsiya bilan Qoraqalpoq tabiiy fanlar ilmiy tadqiqot institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№41 raqam bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 230100, Nukus shahri, Berdaq shoh ko‘chasi 41-uy Tel: (+99861) 222-17-44.

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil«16» 11 da tarqatildi.
(2026-yil«16» 11 dagi 67 raqamli reestr bayonnomasi)

Mambetullaeva Svetlana Mirzamuratovna
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, b.f.d., rrofessor

Temirbekov Ramatulla Orazimbetovich
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, b.f. PhD, katta ilmiy xodim

Shamuratova Nagima Genjemuratovna Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, qishloq xo‘jaligi fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati. Hozirda jahonda aholi sonining o‘sishi, sanoat va qishloq xo‘jaligining jadal rivojlanishi hamda urbanizatsiya jarayonlarining kuchayishi tabiiy ekotizimlarga antropogen bosimning ortishiga sabab bo‘lmoqda. Natijada tabiiy o‘simliklar qoplamining transformatsiyasi va degradatsiyasi, floristik xilma-xillikning kamayishi hamda begona turlarning tarqalishi dolzarb ekologik muammolarga aylanmoqda. Ayniqsa, intensiv dehqonchilik rivojlangan hududlarda ushbu jarayonlar tuproq degradatsiyasi, mikroiqlimning o‘zgarishi va biogeotsenozlar barqarorligining pasayishiga olib kelmoqda. Shu bois antropogen ta’sirga uchragan hududlarda o‘simliklar qoplamining zamonaviy holati, floristik tarkibi va xilma-xilligidagi o‘zgarishlarni kompleks o‘rganish, transformatsiya qonuniyatlarini aniqlash hamda tabiiy ekotizimlarni muhofaza qilishga qaratilgan ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

Dunyoda antropogen omillar ta’sirida tabiiy ekotizimlarning transformatsiyasi, o‘simliklar jamoalari tarkibining o‘zgarishi va biologik xilma-xillikning kamayish qonuniyatlarini aniqlashga qaratilgan tadqiqotlarga alohida e’tibor berilmoqda. Xususan, kuchli antropogen ta’sirga uchragan hududlarda o‘simliklar xilma-xilligini kompleks tadqiq etish, transformatsiyaning asosiy omillarini aniqlash va degradatsiyalangan ekotizimlarni tiklashning ilmiy asoslarini ishlab chiqish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekistonda, jumladan Farg‘ona vodiysida biologik xilma-xillikni saqlash va uni muhofaza qilish yoki mavjud rejalar va dasturlarga moslashtirishning milliy strategiyalari, rejalari va dasturlarini ishlab chiqish, mavjud tabiiy hududlarni kengaytirish, tanazzulga uchragan ekotizimlarni tiklash hamda kamyob va yo‘qolib ketish xavfi ostidagi o‘simlik turlarini tiklash chora-tadbirlarini ko‘rish, ayniqsa foydali o‘simliklardan samarali foydalanishni yo‘lga qo‘yish borasida tizimli va salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda. Andijon viloyati o‘simliklar xilma-xilligining zamonaviy holati, tur tarkibi, ekologik-biologik xususiyatlari va antropogen ta’sir ostidagi o‘zgarish qonuniyatlari yetarlicha kompleks o‘rganilmaganligi bois o‘simliklar qoplamining transformatsiyasini aniqlash, biologik xilma-xillikni saqlash va buzilgan ekotizimlarni tiklash bo‘yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqish muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

2019-2028-yillar davrida O‘zbekiston Respublikasida biologik xilma-xillikni saqlash strategiyasida[1] «biologik xilma-xillikni saqlash va undan barqaror foydalanishning yoki mavjud rejalar va dasturlarga moslashtirishning milliy strategiyalari, rejalari va dasturlarini ishlab chiqish», 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida[2] “aholi salomatligi va genofondiga ziyon yetkazadigan mavjud ekologik muammolarni bartaraf etish hamda Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish, shahar va tumanlarda ekologik ahvolni yaxshilash vazifalari belgilab berilgan. Mazkur vazifalarni amalga

[1] O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 11 iyundagi PQ-484-son «2019-2028 yillar davrida O‘zbekiston Respublikasida biologik xilma-xillikni saqlash strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi qarori.

[2] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son «2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»gi Farmoni.

oshirishda shahar va qishloqlarni ekologik holatini yaxshilash, ko‘kalamzorlashtirish va obodonlashtirish, mavjud tabiiy o‘simlik turlarini saqlab qolish, muhofaza qilish hamda aholi yashash joylarida “yashil maydonlar” ko‘lamini kengaytirishni joriy etish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Mazkur dissertatsiya tadqiqoti O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining atrof-muhitni muhofaza qilishga oid normalari, Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 11-iyundagi 484-son qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 30-oktyabrdagi PF–5863-son, 2022-yil 28-yanvardagi PF–60-son, 2023-yil 31-maydagi PF–81-son, 2023-yil 11-sentabrdagi PF–158-son va 2025-yil 30-yanvardagi PF–16-son farmonlari hamda 2023-yil 21-noyabrdagi PQ–199-son qarorida belgilangan biologik xilma-xillikni saqlash, ekologik xavfsizlikni ta’minlash, tabiiy ekotizimlarni tiklash va atrof-muhitni muhofaza qilishga oid vazifalarni amalga oshirishga muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining V. «Qishloq xo‘jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi» ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan**.**

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Jahonda tabiat va jamiyat o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar, antropogen ta’sirning ekologik oqibatlari N.F.Reimers (1994), biologik xilma-xillikning kamayishi va uni saqlashning ilmiy asoslari E.O.Wilson (1995), o‘simliklar xilma-xilligini muhofaza qilish hamda antropogen omillar ta’sirida flora tarkibining o‘zgarishi P.H.Raven (2010) tadqiqotlarida yoritilgan.

MDH mamlakatlarida landshaftlar ekologiyasi va antropogen transformatsiya jarayonlari N.N.Iogansen (1970), A.Abdulkasimov (1977, 1980), O‘rta Osiyo o‘simliklar qoplami va floristik xilma-xilligining shakllanish xususiyatlari R.V.Kamelin (1990, 2012) hamda B.A.Bikova (1977) tomonidan tadqiq etilgan.

O‘zbekistonda, xususan Farg‘ona vodiysida antropogen ta’sir ostidagi hududlarini o‘rganish bo‘yicha qator tadqiqotlar amalga oshirilgan. Jumladan, vodiyning ruderal va invaziv florasi T.X.Maxkamov (2009, 2024), shimoliy hududlari o‘simliklar qoplamining antropogen transformatsiyasi G.A.Ibrohimova (2020), Andijon shahri urbanoflorasi N.M.Sidiqjanov (2024), tabiiy resurslardan oqilona foydalanishning geografik-ekologik asoslari A.Nazarov (2022), adir landshaftlarining antropogen transformatsiyasi va kartografik xususiyatlari O.T.Mirzamaxmudov (2023) tomonidan o‘rganilgan. Biroq Andijon viloyatining antropogen ta’sirga uchragan hududlarida o‘simliklar xilma-xilligining zamonaviy holati, ekologik-biologik tarkibi va transformatsiya qonuniyatlari hududiy miqyosda yetarlicha kompleks tadqiq etilmagan. Bu esa mazkur yo‘nalishda maxsus floristik-ekologik tadqiqotlar olib borish zaruratini belgilaydi.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Andijon davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining “Farg‘ona vodiysida biologik xilma-xillikni saqlab qolish muammolari” ilmiy mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi antropogen omillar ta’siri ostida qolgan tabiiy hududlarning ekologik holatini tavsiflash va o‘simliklar xilma-xilligini ekologik baholashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Atrof-muhit holatining asosiy indikator ko‘rsatkichlarini aniqlash hamda hududga ta’sir etuvchi asosiy antropogen bosim omillarini baholash;

tabiiy landshaftlarning ekologik xavf-xatar darajasini va zamonaviy holatini tahlil qilish;

hudud florasining turlar tarkibini aniqlash hamda ularning taksonomik, biomorfologik va ekologik xususiyatlarini tahlil qilish;

kuchli antropogen ta’sirga uchragan tog‘ oldi hududlarida o‘simliklar xilma-xilligini baholash va o‘simlik qoplamining holatini NDVI indeksi asosida tahlil qilish;

hududda tarqalgan kamyob va endem turlarni aniqlash, ularning potensial tarqalish areallarini bioiqlimiy modellashtirish hamda ularni muhofaza qilish bo‘yicha ilmiy asoslangan chora-tadbirlar ishlab chiqish.

Tadqiqot obyekti sifatida Andijon viloyatidagi antropogen omillar ta’siri ostida qolgan landshaftlar olingan.

Tadqiqot predmeti hududdagi o‘simliklar qoplami va uning tur tarkibi, xilma-xilligi va antropogen transformatsiya jarayonlarini tashkil etadi.

Tadqiqot usullari. Tadqiqot jarayonida ekologik va botanikaning klassik va zamonaviy usullaridan, jumladan marshrutli, statsionar va yarim statsionar, geobotanik, statistik, biomorfologik, ekologik modellashtirish va to‘r tizimli xaritalash usullari qo‘llanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi.

Ilk bor Andijon viloyati hududida antropogen bosim darajasiga ko‘ra transformatsiyaga uchragan tabiiy va antropogen landshaftlar guruhlanib, ularning ekologik holati baholangan hamda asosiy ekologik indikator ko‘rsatkichlari aniqlangan;

hudud florasi 67 oila, 341 turkum, 653 tur yuksak o‘simliklardan iborat ekanligi aniqlangan hamda ularning ekologik guruhlari, balandlik mintaqalari bo‘yicha tarqalish qonuniyatlari ilmiy asoslantirilgan;

Chilustun va Chilmayram tog‘ oldi hududlarining biologik xilma-xilligi Shyennon indeksi asosida baholanib, mazkur hududlarda turlar xilma-xilligining fazoviy farqlanish qonuniyatlari ilk bor ochib berilgan, tabiiy hudud o‘simlik qoplamining zamonaviy holati NDVI vegetatsiya indeksi asosida baholanib, o‘simlik qoplamining degradatsiya va transformatsiya darajasi aniqlangan;

olingan tadqiqot natijalari asosida o‘simliklar xilma-xilligini saqlash, kamyob va endem turlarni muhofaza qilish hamda degradatsiyaga uchragan ekotizimlarni barqarorlashtirishga qaratilgan ilmiy asoslangan amaliy tavsiya va takliflar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Andijon viloyatining antropogen ta’sirga uchragan hududlari ekologik holatini tavsiflovchi indikator ko‘rsatkichlar aniqlanib, landshaftlarning

transformatsiya darajasini baholash va ekologik monitoringni tashkil etish uchun ilmiy-amaliy asos yaratilgan;

hududda aniqlangan 67 oila, 341 turkum va 653 tur yuksak o‘simliklarning floristik tarkibi, ekologik guruhlari hamda balandlik mintaqalari bo‘yicha tarqalishiga oid ma’lumotlar tizimlashtirilib, o‘simliklar xilma-xilligini muhofaza qilish va hududiy floristik ma’lumotlar bazasini shakllantirish uchun asos tayyorlangan;

Chilustun va Chilmayram tog‘oldi hududlarida o‘simliklar xilma-xilligining Shennon indeksi hamda o‘simliklar qoplamining NDVI ko‘rsatkichi asosida aniqlangan natijalari hududlarning ekologik holatini monitoring qilish, degradatsiyaga uchragan maydonlarni ajratish va muhofaza qilishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash uchun asoslangan;

tadqiqot natijalari asosida tabiiy o‘simliklar qoplamini saqlash, kamyob va endem turlarni muhofaza qilish, antropogen bosimni kamaytirish hamda degradatsiyaga uchragan ekotizimlarni tiklash va barqarorlashtirish bo‘yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. floristikaning klassik va zamonaviy usullarini uyg'unlashganligi, xalqaro va respublika miqiyosidagi konferensiyalarda muhokama qilinganligi, olingan natijalarni yetakchi ilmiy nashrlarda e'lon qilganligi, vakolatli davlat organlari tomonidan dissertatsiya ishining amaliy natijalarini tasdiqlanganligi, turli taksonomik guruhlar bo‘yicha birlamchi natijalarni yetakchi mutaxassislari bilan muhokama qilinganligi, va to‘plangan gerbariy namunalarini Markaziy Osiyo florasi bo‘yicha jahonda yetakchi kolleksiya bo‘lgan O‘zbekiston Milliy gerbariy (TASH) fondida saqlanayotgaligi bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundan iboratki, Andijon viloyatining antropogen ta’sirga uchragan tabiiy va antropogen landshaftlari transformatsiya darajasiga ko‘ra guruhlanganligi, hudud florasining 67 oila, 341 turkum va 653 turdan iborat taksonomik tarkibi, ekologik-biologik xususiyatlari hamda balandlik mintaqalari bo‘yicha tarqalish qonuniyatlari aniqlanganligi bilan izohlanadi. Shuningdek, Chilustun va Chilmayram tog‘oldi hududlarida floristik xilma-xillikning Shennon indeksi, o‘simliklar qoplamining zamonaviy holati esa NDVI vegetatsiya indeksi asosida baholanganligi antropogen transformatsiya jarayonlari va fitotsenozlar barqarorligi haqidagi ilmiy tasavvurlarni kengaytirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati olingan floristik-ekologik ma’lumotlar va ekologik indikator ko‘rsatkichlaridan Andijon viloyatida biologik xilma-xillikni muhofaza qilish, ekologik monitoringni takomillashtirish, degradatsiyaga uchragan ekotizimlarni tiklash hamda yuksak o‘simliklar kadastrini shakllantirishda foydalanish imkoniyatlari bilan belgilanadi. Tadqiqot asosida ishlab chiqilgan ilmiy-amaliy tavsiyalarning tegishli ekologiya tashkilotlari faoliyatiga joriy etilishi, shuningdek, olingan natijalardan oliy ta’lim muassasalarida ekologiya, geobotanika va yuksak o‘simliklar sistematikasi fanlarini o‘qitishda foydalanish imkoniyati ularning amaliy ahamiyatini belgilaydi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Andijon viloyatining antropogen ta’sirga uchragan hududlari ekologik holati va o‘simliklar xilma-xilligining zamonaviy xususiyatlarini o‘rganish bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

Andijon viloyatining tog‘ va tog‘oldi hududlarida 2015–2025-yillar davomida to‘plangan 165 turga mansub yuksak o‘simliklarning 500 nusxadagi gerbariy namunalari O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Botanika institutining O‘zbekiston Milliy gerbariysi (TASH) noyob ilmiy obyekti fondiga topshirilgan (O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining 2026-yil 4-martdagi 4/1256-562-son ma’lumotnomasi). Natijada, Milliy gerbariyning O‘rta Osiyo bo‘limi kolleksiyasi yangi namunalar bilan boyitilib, o‘simliklarning taksonomiyasi, geografik tarqalishi va GAT xaritalariga oid ma’lumotlar asosida O‘zbekiston florasining elektron ma’lumotlar bazasi axborot-tahlil tizimini shakllantirish imkoniyati yaratilgan;

Andijon viloyatining antropogen ta’sirga uchragan hududlarida kamyob va endemik o‘simliklarning tur tarkibi, ekologik xususiyatlari, areallari, bioxilma-xillik ko‘rsatkichlari hamda geoaxborot-bioiqlimiy modellashtirish natijalari asosida ishlab chiqilgan ilmiy-amaliy tavsiyalar Andijon viloyati Ekologiya va iqlim o‘zgarishi bosh boshqarmasi faoliyatiga joriy etilgan (O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligining 2026-yil 2-martdagi 04-03/1-03/3-2015-son ma’lumotnomasi). Natijada, o‘simlik dunyosi obyektlarining davlat kadastrini yuritish, kamyob va endemik turlarning tarkibi, areallari va geoaxborot ma’lumotlari bazasini shakllantirish, ularning populyatsiyalarini baholash hamda muhofaza qilish tadbirlarida ilmiy natijalardan amaliy foydalanish imkoniyati yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 4 ta xalqaro va 7 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 23 ta ilmiy ish nashr etilgan. Shundan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 11 ta maqola (3 ta xorijiy va 8 ta respublika jurnalda), jumladan: xorijiy 2 ta, respublika miqyosida o‘tkazilgan konferensiyada 10 ta tezis chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, 4 ta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 119 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlarga muvofiqligi, tadqiqot ishi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi, muammoning o‘rganilganlik darajasi, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti, ilmiy yangiligi, tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati, natijalarning joriy qilinishi, chop etilgan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi to‘g‘risida ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Mavzuga doir olib borilgan tadqiqotlar tahlili, obyekt va metodlar”** nomli birinchi bobida tadqiqot obyekti, hududning tabiiy-geografik xususiyatlari hamda antropogen omillarning o‘simliklar xilma-xilligiga ta’sirini o‘rganishda qo‘llanilgan ilmiy-uslubiy yondashuvlar yoritilgan. Tadqiqot obyekti sifatida Andijon viloyatining antropogen ta’sirga uchragan landshaftlari tanlanib, ularning ekologik holati va o‘simliklar qoplamidagi o‘zgarishlarni aniqlashda floristik, geobotanik, ekologik, kartografik va statistik usullardan foydalanilgan. Hududning antropogen bosim darajasi Human Footprint Index (HFI), 2012–2025-yillarda o‘tkazilgan marshrutli dala tadqiqotlari davomida 1000 dan ortiq gerbariy namunalari yig‘ilib, o‘simlik turlarining taksonomik tarkibi, tarqalishi va ekologik xususiyatlari aniqlangan. Turlarni identifikatsiya qilishda fundamental floristik manbalar va xalqaro nomenklatura bazalaridan foydalanilgan.

O‘simliklarning hayotiy shakllari Raunkiaer (1934), namlik omiliga munosabatiga ko‘ra ekologik guruhlari Belgard (1950) va Tarasov (2012) yondashuvlari asosida tahlil qilingan. Andijon viloyati o‘simlik qoplamining fazoviy-vaqt dinamikasi masofadan zondlash ma’lumotlarini spektral tahlil qilish usuli asosida, Rouse va boshq. (1974) tomonidan ishlab chiqilgan NDVI vegetatsiya indeksini hisoblash metodikasi yordamida baholandi. NDVI qiymatlari sun’iy yo‘ldosh tasvirlarining qizil va yaqin infraqizil spektral kanallari asosida aniqlanib, 2000–2025-yillar davomida o‘simlik qoplamining hududiy o‘zgarishlari tahlil qilindi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Andijon viloyatining atrof-muhit holati ko‘rsatkichlari va asosiy antropogen bosim omillari”** deb nomlanib, unda hududning ekologik holati, antropogen bosim omillari va ularning o‘simliklar xilma-xilligiga ta’siri tahlil qilingan. Mazkur bobning birinchi bo‘limida (§2.1) atmosfera havosi, suv va tuproq holati hamda antropogen bosimning hududiy taqsimoti ekologik indikatorlar asosida baholangan Hudud landshaftlariga antropogen bosim darajasi Sanderson va boshq. (2002) tomonidan taklif etilgan Human Footprint Index (HFI) yondashuvi asosida baholandi.Andijon shahrida HFI ko‘rsatkichi 7,20 ni tashkil etib, antropogen bosimning yuqori darajasini ko‘rsatdi (1-rasm). HFI indeksida mavjud barcha ko‘rsatkichlar 0–10 ball oralig‘ida standartlashtirildi va hisoblab chiqildi.

bu yerda: HFI – inson ta'siri indeksi; – i- omilning vazn koeffitsiyenti; – ushbu omilning standartlashtirilgan (0–10 ball) qiymati; n – hisobga olingan omillar soni. HFI=2.25+1.40+1.60+1.20+0.75=7.20 Andijon shahrining HFI ko‘rstkichi 7.20 ga teng bo‘lib, antropogen bosim darajasi HFI shkalasi bo‘yicha “Yuqori” o‘rsatkichini namoyon etdi.

“Sinantropizatsiya va uning ekologik jihatlari” (§2.2) bo‘limida urbanizatsiya natijasida tabiiy o‘simlik qoplamining qisqarishi, biotoplarning

fragmentatsiyalanishi va sinantrop turlar ulushining ortishi yoritilgan. Andijon shahrining sharqiy adirlari hamda “Yangi Andijon” massivi misolida tabiiy landshaftlarning transformatsiyasi, jumladan, *Ambrosia artemisiifolia*, *Ailanthus altissima*, *Conyza canadensis* va *Sorghum halepense* kabi antropogen muhitga moslashgan turlarning tarqalishi qayd etilgan.



2012-yil iyun ***2024-yil iyun***

2-rasm. Andijon shahar sharqiy adirlari (Google Earth dasturi bo‘yicha)

Dissertatsiyaning ikkinchi bobidagi **“Qishloq xo‘jaligi maqsadlarida yerlarning o‘zlashtirilishi”** deb nomlangan uchinchi (§2.3) bo‘limida Andijon viloyatida 1975–2025-yillar davomida qishloq xo‘jaligi yerlarining kengayish dinamikasi tahlil qilingan. Natijada, o‘zlashtirilgan yerlar maydoni taxminan 100 ming gektardan 240 ming gektargacha, ya’ni 2,4 barobar ortgani ko‘rsatilgan. Yerlarning o‘zlashtirilishi Asaka, Oltinko‘l va Shahrixon hududlarida tabiiy landshaftlarning transformatsiyalanishi, suv resurslariga antropogen bosimning kuchayishi hamda tuproq degradatsiyasi va sinantropizatsiya xavfining ortishi bilan tavsiflangan. Shunindek, so‘nngi 50 yil ichida sug‘oriladigan maydonlarning kengayishi va agrar faoliyatning tabiiy ekotizimlarga ta’siri tahlil qilingan. Sun’iy yo‘ldosh tasvirlari asosida Polvontosh atrofidagi hududlarda tabiiy landshaftlarning qisqarishi va o‘simlik qoplamining fragmentatsiyalanishi aniqlangan.

“Hududning sanoat va ishlab chiqarish faoliyati” bo‘limida (§2.3) qazib olish va qurilish materiallari ishlab chiqarishning ekologik oqibatlari o‘rganilgan. Sanoat faoliyati bilan bog‘liq gaz va chang chiqindilari (CO_2, SO_2, NO_2, $PM_{2,5}$ va PM_{10}), suv va tuproq ifloslanishi tabiiy ekotizimlarga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi omillar sifatida tavsiflangan. Ularning ta’sirini kamaytirish uchun chiqindilarni tozalash tizimlarini takomillashtirish va ekologik xavfsiz texnologiyalarni joriy etish zarurligi asoslangan.

Dissertatsiyaning **“Hudud landshaftlarining antropogen transformatsiyasi va o‘simliklar xilma-xilligi”** deb nomlangan uchinchi bobida Andijon viloyati landshaftlarining antropogen o‘zgarishi, flora tarkibining taksonomik va ekologik xususiyatlari, o‘simliklarning hayotiy shakllari hamda rekreatsion bosim sharoitida o‘simlik jamoalarining biologik xilma-xilligi tahlil qilingan. Bobning birinchi bo‘limida (§3.1) hudud landshaftlari tog‘oldi-adir, sug‘oriladigan vodiy-pasttekislik, daryo bo‘yi va rekreatsion-tabiiy landshaftlarga ajratilib, ularning antropogen transformatsiyalanish xususiyatlari aniqlangan. Adir hududlarida qurilish materiallari ishlab chiqarish, qishloq xo‘jaligi, baliqchilik va transport

infratuzilmasining rivojlanishi natijasida tuproq va o‘simlik qoplamining o‘zgarishi hamda tabiiy landshaftlar barqarorligining pasayishi kuzatilgan. Rekreatsion faoliyatning asosan tabiiy landshaftlari va biologik xilma-xilligi nisbatan yaxshi saqlangan hududlarda jamlangani qayd etilgan.

“Hududning o‘simliklar xilma-xilligi” deb nomlangan ikkinchi bo‘limida (§3.2) Andijon viloyati florasining taksonomik tarkibi va ekologik tuzilishi tahlil qilingan. Olib borilgan floristik tadqiqotlar natijasida hududda 67 oila va 341 turkumga mansub 653 turdagi yuksak o‘simliklar aniqlangan (1-jadval). Hudud florasi APG- IV sistemasi (2016) bo‘yicha taksonomik tarkibi shakllantirilgan.

1-jadval

Andijon viloyati florasining taksonomik tuzilishi: turkumlar va turlarning asosiy sistematik guruhlar hamda oilalar bo‘yicha taqsimlanishi (APG- IV, 2016)

№	Oilalar	Turkum soni	Umumiy turlar soni	Um.turlar soniga nisb. % h.
Lycophytes				
Subclass Equisetidae				
1	Equisetaceae	1	2	0,31
Gymnosperms- Gnetophyta				
2	Ephedraceae	1	2	0,31
Monocots				
Class Alismatales R.Br. ex Bercht. & J.Presl				
3	Araceae	1	1	0,15
4	Alismataceae	2	2	0,31
5	Butomaceae	1	1	0,15
Liliales Perleb				
6	Liliaceae	3	17	2,6
Asparagales Link				
7	Ixioliriaceae	1	1	0,15
8	Iridaceae	1	2	0,31
9	Asphodelaceae	1	1	0,15
10	Amaryllidaceae	1	6	0,92
11	Asparagaceae	1	2	0,31
12	Xanthorrhoeaceae	1	1	0,15
Poales Small				
13	Typhaceae	1	3	0,46
14	Juncaceae	1	3	0,46
15	Cyperaceae	8	19	2,91
16	Poaceae	38	71	10,87
Eudicots				
Ranunculales Juss. ex Bercht. & J.Presl				
17	Papaveraceae	6	10	1,5
18	Berberidaceae	1	1	0,15
19	Ranunculaceae	7	16	2,45

Saxifragales Bercht. & J.Presl				
20	Grossulariaceae	2	2	0,31
Rosids				
Zygophyllales Link				
21	Zygophyllaceae	2	2	0,31
22	Tetradiclidaceae	1	1	0,15
Fabales Bromhead				
23	Fabaceae	12	42	6,43
24	Polygalaceae	1	1	0,15
Rosales Bercht. & J.Presl				
25	Rosaceae	11	13	1,99
26	Elaeagnaceae	2	2	0,31
27	Rhamnaceae	1	1	0,15
28	Cannabaceae	1	1	0,15
29	Moraceae	1	1	0,15
Malpighiales Juss. ex Bercht. & J.Presl				
30	Hypericaceae	1	1	0,15
31	Violaceae	1	2	0,31
32	Salicaceae	1	4	0,61
33	Euphorbiaceae	3	9	1,37
34	Linaceae	1	1	0,15
Geraniales Juss. ex Bercht. & J.Presl				
35	Geraniaceae	2	7	1,07
Sapindales Juss. ex Bercht. & J.Presl				
36	Nitrariaceae	1	1	0,15
37	Anacardiaceae	1	1	0,15
38	Rutaceae	1	2	0,31
Malvales Juss. ex Bercht. & J.Presl				
39	Malvaceae	3	6	0,92
40	Thymelaeaceae	1	1	0,15
Brassicales Bromhead				
41	Capparaceae	1	1	0,15
42	Brassicaceae	42	69	10,5
Superasterids				
Caryophyllales Juss. ex Bercht. & J.Presl				
43	Tamaricaceae	1	2	0,31
44	Plumbaginaceae	1	1	0,15
45	Polygonaceae	5	17	2,6
46	Caryophyllaceae	13	28	4,29
47	Amaranthaceae	16	36	5,51
48	Portulacaceae	1	1	0,15
Asterids				
Ericales Bercht. & J.Presl				
49	Primulaceae	1	1	0,15
Gentianales Juss. ex Bercht. & J.Presl				
50	Rubiaceae	2	5	0,76

51	Gentianaceae	1	1	0,15
52	Apocynaceae	2	2	0,31
53	Asclepiadaceae	1	1	0,15
Boraginales Juss. ex Bercht. & J.Presl				
54	Boraginaceae	13	24	3,67
55	Heliotropiaceae	1	4	0,61
Solanales Juss. ex Bercht. & J.Presl				
56	Convolvulaceae	3	7	1,07
57	Solanaceae	5	6	0,92
Lamiales Bromhead				
58	Oleaceae	1	1	0,15
59	Plantaginaceae	2	12	1,84
60	Scrophulariaceae	2	4	0,61
61	Lamiaceae	20	33	5,53
62	Verbenaceae	1	1	0,15
63	Mazaceae	1	1	0,15
64	Orobanchaceae	2	3	0,46
Asterales Link				
65	Asteraceae	52	94	14,39
Dipsacales Juss. ex Bercht. & J.Presl				
66	Caprifoliaceae	4	9	1,37
Apiales Nakai				
67	Apiaceae	20	27	4,13
	Jami	**341**	**653**	**100**

Bu holat flora tarkibida ayrim yirik taksonomik guruhlarning ustunligini hamda hudud florasining mintaqaviy floristik qonuniyatlarga mos ravishda shakllanganini tasdiqlaydi.

Andijon viloyati florasida qayd etilgan 653 ta o‘simlik turining hayotiy shakllari Raunkiyer (1934) tasnifi asosida tahlil qilindi. Natijalarga ko‘ra, terofitlar 340 tur (52,07%), gemikriptofitlar 213 tur (32,62%), kriptofitlar 39 tur (5,97%), fanerofitlar 34 tur (5,21%) va xamefitlar 27 tur (4,13%) ni tashkil etdi. Floristik tarkibda terofitlar (*Amaranthus retroflexus, Chenopodium album, Ceratocarpus arenarius, Lactuca serriola*) va gemikriptofitlar (*Achillea filipendulina, Cichorium intybus, Cirsium arvense, Convolvulus arvensis*) ustunlik qilib, jami 553 turni (84,69%) tashkil etdi. Kriptofitlar (*Alisma plantago-aquatica, Sagittaria trifolia, Carex divisa*), fanerofitlar (*Pistacia vera, Berberis integerrima, Rosa canina*) va xamefitlar (*Anabasis aphylla, Camphorosma monspeliaca, Artemisia persica*) nisbatan kam ulushga ega ekanligi aniqlandi. Terofitlarning noqulay mavsumni urug‘ holatida, gemikriptofitlarning esa tuproq yuzasiga yaqin joylashgan yangilanish kurtaklari orqali o‘tkazishi ularning mavsumiy qurg‘oqchilikka moslashganligini ko‘rsatadi. Ushbu guruhlarning yuqori ulushi hududning tabiiy-iqlimiy sharoitlari, yerlarning o‘zlashtirilishi, yaylovlardan intensiv foydalanish va o‘simlik qoplamining antropogen buzilishi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin.



3 -rasm. Hudud o‘simliklarining hayotiy shakllari bo‘yicha tahlili (Raunkiyer, 1934)

O‘simlik turlarining namlik omiliga munosabatiga ko‘ra ekologik tarkibi A. L. Belgard (1950) va V. V. Tarasov (2012) ekomorfologik yondashuvlari asosida tahlil qilindi. Tadqiqot hududi florasida mezofitlar 220 tur (33,69%) bilan ustunlik qilib, kserofitlar 139 tur (21,29%), kseromezofitlar 127 tur (19,45%) va mezokserofitlar 84 turni (12,86%) tashkil etdi. Namlikka talabchan ekologik guruhlardan gigrofitlar 42 tur (6,43%), mezogigrofitlar 29 tur (4,44%), gigromezofitlar 8 tur (1,23%), gidrofitlar va gidrogigrofitlar esa 2 tadan tur (0,31%) bilan ifodalandi (4-rasm). Andijon viloyati florasida namlik omiliga munosabatiga ko‘ra mezofitlar (*Achillea filipendulina* Lam., *Vinca erecta* Regel & Schmalh., *Allium alaicum* Vved., *Arum korolkowii* Regel.) hamda kserofitlar (*Anabasis aphylla* L., *Camphorosma monspeliaca* L., *Ceratocarpus arenarius* L., *Achillea biebersteinii* Afan. каби) yetakchi ekologik guruhlar sifatida qayd etilgan. Ushbu guruhlarning salmoqli ulushi hududda namlik sharoitlarining xilma-xilligini hamda o‘simliklarning o‘rtacha nam va qurg‘oqchil muhitlarga ekologik moslashganligini ko‘rsatadi.

Olib borilgan dala tadqiqotlari va to‘plangan ma’lumotlar asosida hudud o‘simliklari foydalilik xususiyatiga ko‘ra tahlil qilinib, jami turlarning muhim qismi oziq-ovqat, dorivor, yem-xashak va boshqa xo‘jalik ahamiyatiga ega guruhlarga mansubligi aniqlangan.

Uchinchi bobning uchinchi bo‘limida (§3.3) hududning tog‘ oldi va adir zonalarida, xususan Qirtoshtov tog‘ tizmasi misolida rekreatsion bosimning o‘simliklar jamoalariga ta’siri ekologik jihatdan baholandi. Tadqiqotlarda rekreatsion yuklama darajasiga ko‘ra hududlar shartli ravishda kuchli, o‘rta va minimal antropogen bosim zonalariga ajratilib, ularning ekologik ko‘rsatkichlari qiyosiy tahlil qilindi. Natijalar rekreatsion faoliyat intensivligi ortishi bilan o‘simlik qoplamining zichligi, fitomassa va turlar xilma-xilligining kamayishi, shuningdek, sinantrop va antropotolerant turlarning ustunlashuvi kuzatilishini ko‘rsatdi.



4 -rasm. Hudud o‘simliklarining namlik omiliga ko‘ra guruhlari

O‘simliklar jamoalarining bioxilma-xilligi Shannon indeksi (1948) asosida baholanib, minimal antropogen bosim sharoitida indeks qiymati yuqori (H′≈3,2), kuchli bosim ostidagi hududlarda esa past (H′≈0,85) ekani aniqlandi (5- rasm). Shuningdek, rekreatsion yuklama ortishi bilan o‘simliklarning o‘rtacha balandligi va yashil biomassa miqdori kamayib, shikastlanish darajasi esa ortib borishi qayd etildi. Bu esa rekreatsion bosim darajasi bilan fitotsenozlarning ekologik barqarorligi o‘rtasida teskari bog‘liqlik mavjudligini tasdiqlaydi. Uchinchi bobning to‘rtinchi (§3.4) bo‘limida Andijon viloyati o‘simlik qoplamining 2000–2025-yillardagi fazoviy-vaqt dinamikasi masofadan zondlash ma’lumotlari asosida NDVI vegetatsiya indeksini hisoblash usuli (Rouse va boshq., 1974) yordamida baholangan;

$$NDVI = \frac{NIR - RED}{NIR + RED}$$

bu yerda, NIR — yaqin infraqizil diapazondagi qaytarilish ko‘rsatkichi;
RED — qizil spektral diapazondagi qaytarilish ko‘rsatkichi.

Bu bo‘limda ko‘p yillik tahlillarda vegetatsiya qoplamining hududiy notekisligi, nisbatan yuqori NDVI qiymatlari sug‘oriladigan qishloq xo‘jaligi yerlari va bog‘-tokzorlarda, past qiymatlar esa tabiiy namlanishi cheklangan adir va tog‘oldi hududlarida kuzatilganligi zamonaviy metodlar asosida ilmiy asoslangan.

Tadqiqot o‘tkazilgan 2025-yilning aprel–may oylariga oid NDVI xaritasida indeks qiymatlari taxminan –0,33 dan 1,0 gacha oraliqda taqsimlangan. Hududning katta qismida yashil va sarg‘ish-yashil ranglarning ustunligi vegetatsiya faolligining hududlar bo‘yicha farqlanishini ko‘rsatadi.



5-rasm. Rekreatsion bosim ostida o‘simlik qoplamining o‘zgarishi tahlili

Ayrim maydonlarda past NDVI qiymatlarining qayd etilishi o‘simlik qoplamining siyrakligi yoki vegetatsiya faolligining sustligi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Mazkur fazoviy tafovutlar o‘simlik qoplamining holatida tabiiy namlanish sharoiti, yerlarning xo‘jalik maqsadlarida foydalanilishi va sug‘orish rejimining ahamiyatini ko‘rsatadi (6-rasm). Aniqlangan hududiy tafovutlar o‘simlik qoplamining holati tabiiy-geografik sharoit va antropogen omillar bilan bog‘liqligini ko‘rsatadi.



6-rasm. Andijon viloyati o‘simlik qoplamining 2025-yil aprel–may oylaridagi NDVI vegetatsiya indeksi bo‘yicha fazoviy taqsimlanishi

Dissertatsiyaning **“Andijon viloyatida tarqalgan kamyob va endem turlarning bioiqlimiy modellashtirilish”** deb nomlangan to‘rtinchi bobida kamyob va endem o‘simliklarning tarqalishi, areal xususiyatlari, muhofaza holati hamda bioiqlimiy omillarga bog‘liqligi tahlil qilingan. Ushbu bobda kamyob va endemik turlarning GEOcat (Geospatial Conservation Assessment Tool) dasturi asosida baholangan holati hamda ularga ta’sir qilayotgan turli antropogen omillar haqida ma’lumotlar keltirilgan.

Dala tadqiqotlari natijalari va koordinatalangan tarqalish nuqtalarini GEOcat dasturida tahlil qilish asosida 8 tur endemik tur aniqlandi. Shundan, 4 tasi Farg‘ona vodiysi (*Allium alaicum*, *Tulipa ferganica*, *Allium michaelis*, *Fritillaria rugillosa*), 3

tasi O‘zbekiston (Ga*gea khassanovii, Iris narynensis, Geranium baschkyzylsaicum*) hamda 1 tasi O‘rta Osiyo (*Tulipa turkestanica*) endemlari ekanligi tasdiqlandi. Endemik, kamyob va muhofazaga muhtoj turlarning yuqori konsentratsiyasi Bog‘ishamol adirlari, Qirtoshtov va Chilmayram tog‘ tizmalariga to‘g‘ri kelishi GEOcat xaritalash natijalari asosida aniqlandi.

